

“JORJ GERBERT MID” NING RAMZIY INTERAKSIONIZM NAZARYASI

Ganiyeva Madina Ozodovna

O‘zbekiston Milliy Universiteti,

Ijtimoiy fanlar fakulteti Sotsiologiya yo‘nalishi 1-kurs talabasi.

ganiyevam858@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15319164>

Annotatsiya. Ushbu maqola Jorj Gerbert Midning ramziy interaksionizm nazariyasi insonlar o‘tasidagi ijtimoiy muloqotni va bu muloqot orqali shaxs shakllanishini tushuntiruvchi yondashuv hisoblanadi. Jorj Gerbert Midning ushbu nazaryasiga ko‘ra, odamlar o‘zaro aloqada ramzlar (til, imo-ishora, belgilar) orqali muloqat qilishadi va bu ramzlar orqali ma‘no berib, ijtimoiy hayotda o‘z o‘rnini aniqlashadi. J.G.Midning “Men” va “Menlik” tushunchalari orqali shaxsiy ongning rivojlanish jarayonini tushuntiradi. J.G.Midning bu nazaryasi sotsiologiya va psixologiyada insonlarning xulq-atvorini tahlil qilishda keng qo‘llaniladi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy muloqat, ramziy interaksionizm, ijtimoiy ong, ramzlar, shaxs, ijtimoiy psixologiya, sotsiologiya.

ТЕОРИЯ СИМВОЛИЧЕСКОГО ИНТЕРАКЦИОНИЗМА ДЖОРДЖА ГЕРБЕРТА МИДА

Аннотация. эта статья теория символического интеракционизма Джорджа Герберта МИДа-это подход, который объясняет социальный диалог в человеческой среде и формирование личности посредством этого общения. Согласно этой теории Джорджа Герберта МИДа, люди общаются через символы (язык, жесты, знаки) во время взаимодействия и определяют свое место в социальной жизни, придавая значение этим символам. J.G.Через понятия ‘я’ и ‘я’ МИД объясняет процесс развития индивидуального сознания. J.G.Эта теория МИДа широко используется в социологии и психологии при анализе человеческого поведения.

Ключевые слова: социальная коммуникация, символический интеракционизм, общественное сознание, символы, личность, социальная психология, социологи

HTHE THEORY OF SYMBOLIC INTERACTIONISM OF " GEORGE HERBERT MEAD

Abstract. this article is an approach in which George Herbert Mead's theory of symbolic interactionism explains Social Dialogue in the human race and the formation of identity through this dialogue. According to this theory of George Herbert Mead, people communicate through symbols (language, gestures, signs) in interaction and, by giving meaning through these symbols, determine their place in social life. J.G.Mead explains the development process of personal

consciousness through his concepts of 'I' and 'It'. J.G. This theory of Mead is widely used in sociology and psychology in the analysis of human behavior.

Keywords: social communication, symbolic interactionism, social consciousness, symbols, personality, Social Psychology, Sociology.

Ramziy interaksionizm nazaryasi insonlarning o'z tajribalarini va ijtimoiy o'zaro aloqalarni ramziy simvollar orqali shakllantiradi. Bularga so'zlar, mimikalar, harakatlar shu turdagi kommunikatsiya shakllari ijtimoiy guruhlarda ma'no va qiymatlarni yaratadi.

Ramziy interaksionizm ma'lum darajada strukturaviy funksionalizmga qarshi turadi. Agar strukturaviy funksionalizm vakillari sotsial jarayon strukturasi odamlarning harakatlariga tomon yo'nalgan bo'lsa, ramziy interaksionizm tarafdorlari esa harakatdagi shaxsdan sotsial struktura tomon yo'naladi. Shu tariqa, bu strukturaga sub'ektivistik qarash shakllanadi. Strukturaviy funksionalizmning nazariy yo'nalganligidan farqli, ramziy interaksionizm asosan empirik yo'nalgandir.

Jorj Gerbert Mid (1863-1931) Massachusetts shtatida tug'ilgan. Garvard universitetini tugatgach va Germaniyada tajriba oshirgach, u Chikago universiteti professoriga aylanadi va u yerda 1931-yilga qadar o'qituvchilik qiladi. Ko'p vaqt davomida Mid faqat ikkinchi o'rindagi ijtimoiy psixolog sifatida qabul qilindi; faqat 1950-yillarning oxiri — 1960-yillarning boshida u o'ziga xos falsafiy-sotsiologik konsepsiya muallifi, tez orada esa — sotsiologiya va falsafaning mumtoz namoyandasi sifatida tan olindi. Bu ham uning o'ziga xos ijodiy yondashuvi, ham asarlari taqdiri bilan izohlanadi. Mid hayotligida iste'dodli ma'ruzachi va turli nashrlarda bosilgan ko'plab maqolalar muallifi kabi tanilgan edi. U kitoblar chiqarmas va zamondoshlari aytganidek, o'z ijodini juda past baholardi. Hatto u o'zini haddan tashqari, patologik qobiliyatsiz, deb baholagani haqida gapirishad. Midning vafotidan so'ng uning sobiq talabalar o'z konspektlariga tayanib, maqolalar va ma'ruzalar matnlarini to'plashdi va 1930-yillar mobaynida ulami to'rt jildlik kitob ko'rinishida nashr etishdi, va aynan ular Midga shuhrat keltirdi

Mid to'rtta asosiy o'zaro aloqa bosqichlarini ajratib ko'rsatdi:

Impuls, his etish (persepsiya), manipulyasiya va iste'mol (konsummatsiya). Ular uyg'un birlikni hosil qiladi. Tuban hayvonlar ham, odamlar ham harakat qiladi. Midni ular o'rtasidagi o'xshashliklar va ayniqsa farqlanishlar qiziqtiradi. Ulami birma-bir qarab chiqamiz:

Birinchi bosqich - impuls bosqichi bo'lib, u «bevosita hissiy rag'batni» va aktoming bu da'vatga reaksiyasini, bu borada biror ishni bajarish ehtiyojini o'z ichiga oladi.

Harakatning ikkinchi bosqichi - his etish, aktor uning yordamida impuls bilan bog'liq rag'batlarni izlaydi va ularga javob qaytaradi hamda uni qoniqtirishning qulay usullarini aniqlaydi.

Uchinchi bosqich - manipulyasiya. Impuls aniqlangan, obyekt esa his etilganidan keyingi qadam shundaki, aktor obyekt bilan manipulyasiya qiladi yoki kengroq ma'noda, unga nisbatan ma'lum harakatlar bajaradi.

Harakatning so'nggi bosqichi - iste'molni yoki boshlang'ich impulsni qanoatlantiradigan harakatni amalga oshirishni nazarda tutadi, ya'ni boshqacha qilib aytganda obyektidan foyda olish va uni baholash jarayonidir.

Mid doim ta'kidlaganidek, inson va insoniyatning sotsial dunyosi sotsial o'zaro aloqalar jarayoni ta'sirida shakllanadi. Bunda "ramziy muhit" katta rol o'ynaydi. Midga ko'ra, odamlar o'rtasidagi muloqot maxsus vositalar - ramzlar yordamida amalga oshiriladi. Ishora va tilni u shu ramzlarga kiritadi. Insonni qurshagan ramziy muhit unga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi, chunki shaxs ongi va inson Meni shakllanishiga yordam beradi. Ishora - bu inson harakatining boshlang'ich, tugallanmagan unsuridir. Ishora va unga javob go'yoki ishora va uni qabul qiluvchi odam o'rtasida "joylashadigan" mohiyat bilan ifodalanadi.¹

J.G.Midning asosiy nazariy g'oyalari quyidagicha:

1. "Men" va "Menlik" tushunchasi: Mid inson ongini ikki qismga bo'ladi – "I" (faol, ichki men) va "Me" (ijtimoiy men). "Me" – bu jamiyatning shaxsga bo'lgan ta'siri natijasida shakllangan "men"dir. "I" esa shaxsning mustaqil ravishda javob berish xususiyatidir.²

2. O'zini anglash: Midga ko'ra, inson o'zini boshqa odamlar bilan o'zaro munosabat orqali anglaydi. Bu o'zaro ta'sir jarayonida inson o'zining ijtimoiy rolini tushunadi va mos ravishda harakat qiladi.³

3. Til va muloqot: Til – bu asosiy ramziy tizimdir. Mid til orqali insonlar o'zaro fikr almashadi, o'zaro ta'sir qiladi va ijtimoiy ongini shakllantiradi.⁴

Nazariyaning ahamiyati

Midning ramziy interaksionizm nazariyasi shaxsni faqat jamiyatning mahsuli deb emas, balki faol ishtirokchi sifatida talqin qiladi. Bu nazariya ijtimoiy o'zgarishlar, rollar, identitet va kundalik hayotdagi ijtimoiy munosabatlarni tahlil qilishda keng qo'llaniladi.⁵

Xulosa

J.G. Midning ramziy interaksionizm nazariyasi jamiyatni tushunishda yangi yondashuvni taklif etgan. Bu nazariya orqali inson va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlar, o'zaro ta'sir va ramzlar orqali shakllanadigan ma'no dunyosi chuqur tahlil qilinadi. Bugungi kunda bu nazariya sotsiologiya, psixologiya va antropologiya kabi fanlarda muhim o'rin tutadi.

REFERENCES

1. Blumer, H. (1969). Symbolic Interactionism: Perspective and Method. University of California Press.
2. Ritzer, G. (2011). Sociological Theory (8th ed.). McGraw-Hill Education.
3. Turner, J. H. (2006). The Structure of Sociological Theory. Wadsworth Publishing.
4. Karimova, N. (2018). Ijtimoiy psixologiya asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
5. Gulnoz J. Sotsiologiya tarixi.–T.: Innovatsiya-Ziyo, 2020.–466 b.
6. Jiyanmuratova G. Sh. Huquq sotsiologiyasi: O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Oltin qalam" nashriyoti, 2024. – 180 b. // https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=fdboTmYAAAAAJ&sortby=pubdate&citation_for_view=fdboTmYAAAAAJ:QD3KBmkZPeQC
7. Jiyanmuratova G. Sh. Zamonaviy sotsiologik nazariyalar va maktablar: Darslik. – Toshkent: "Oltin qalam" nashriyoti, 2024. – 340 b. // https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=fdboTmYAAAAAJ&sortby=pubdate&citation_for_view=fdboTmYAAAAAJ:jL-93Qbq4QoC
8. Bekmurodov, M.B.; Raximova, N.X.; Jiyanmuratova, G.Sh.; Nurqulov, B.G'. Jamoatchilik fikri sotsiologiyasi: O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2025. – 160 b. // https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=fdboTmYAAAAAJ&sortby=pubdate&citation_for_view=fdboTmYAAAAAJ:48xauSegjOkC
9. Sh J. G. Gofurov O. Ul. Mehnat bozori. Bandlik va ishsizlik muammolari. Risola.– Toshkent: O 'zMU, 2023.–117 b.
10. Gulnoz J., Bunyod N. YOSHLAR IJTIMOY-SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISH–USTUVOR VAZIFA //ZAMONAVIY DUNYONING IJTIMOY MANZARASI VA JAMIYAT TUZILMALARI TRANSFORMATSIYASI. – 2024. – T. 1. – №. 1.
11. Sherbutayevna J. G. et al. YOSHLAR HUQUQIY MADANIYATINI YUKSALTIRISH–DAVLAT SIYOSATINING USTUVOR VAZIFASI //ZAMONAVIY DUNYONING

- IJTIMOIY MANZARASI VA JAMIYAT TUZILMALARI TRANSFORMATSIYASI. – 2024. – Т. 1. – №. 1.
12. Джиянмуратова Г. YOSHLARNING SIYOSIY INSTITUTLARGA NISBATAN ISHONCHI MUAMMOSI: NAZARIY ASOSLAR //ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ. – 2024. – №. SI-1.
13. Sherbutayevna J. G. et al. ABSENTEIZM IJTIMOIY HODISA SIFATIDA //Tafakkur manzili. – 2023. – Т. 2. – С. 4-10.
14. Жиянмуратова Г. Ш. Ёш сайловчи электорал хулқ-атвориға таъсир кўрсатувчи омиллар/ЎЗМУ хабарлари.–Тошкент, 2022. – № 1/11/1.–Б. 86-89./<https://scholar.google.com/citations>.
15. Джиянмуратова Г. Ш. ELEKTORAL XULQ-ATVORGA RATSIONAL-INSTRUMENTAL YONDASHUVNING PAYDO BO ‘LISHI VA RIVOJLANISHI TARIXI //ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ. – 2022. – Т. 5. – №. 3. // https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=fdboTmYAAAAAJ&cstart=20&pagesize=80&sortby=pubdate&citation_for_view=fdboTmYAAAAAJ:HtEfBTGE9r8C
16. Жиянмуратова Г. Ўзбекистон ёшларининг электорал маданияти. Монография.– Тошкент, 2021.–122 б.
17. Sh J. G. The Issue Of Youth Trust In Political Institutions In Sociology //Sotsiologiya va huquq/Sociology and law. – 2024. – Т. 2. – №. 3/1. – С.
18. Jiyanmuratova G. S. ZAMONAVIY YOSHLARNING SIYOSIY INSTITUTLARGA ISHONCHI TADQIQOTLARI: XORIJ TAJRIBASI //Academic research in educational sciences. – 2024. – №. 3. – С. 190-197.